

CHINGIZ AYTMATOV, ODIL YOQUBOV – ULKAN ADIB, ODDIY INSON

Mahbuba O‘RAZBAYEVA

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti, f.f.f.d., PhD

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15877941>

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada qirg‘iz xalqining mashhur yozuvchisi Chingiz Aytmatov va o‘zbek adabiyotining yirik vakili Odil Yoqubovning samimiy do‘stligi, ijodiy hammaslak va hamfikir ekanligiga urg‘u qaratildi. Odil Yoqubovning Chingiz Aytmatov haqida yozgan “Chingiz Aytmatov – ulkan adib, oddiy inson” nomli esse-maqola va “Adib va chin inson” maqolalari hamda Maryam Yoqubovning “Ulug‘ va sadoqatli muhabbat” kitobidagi xotiralariga tayanilgan xolda Aytmatovning insoniy fazilatlari ochib berildi. Aytmatovning kibrdan, kalandimog‘likdan yiroq, maqtozni yoqtirmaydigan inson ekanligi, juda katta zakovat sohibi, shirin suhbatdosh, yangi-yangi hangomalar bilan davrani va suhbatdoshni jalb qila oladigan iste‘dod sohibi, aytilgan joyga yoki uchrashuvlarga hamisha o‘z vaqtida boradigan (kech qolish odatini yomon ko‘radigan), yaqin aqrabolarini tez-tez yo‘qlaydigan va eng asosiyini o‘z tug‘ilib o‘sgan yurtini sevib ardoqlaydigan vatanparvar ekanligi tahlillarda yoritildi.*

***Kalit so‘zlar:** do‘st, yozuvchi, inson, adib, Odil Yoqubov, Chingiz Aytmatov, xotira.*

Tarixning zarvaraqlariga nazar tashlasak o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, qoraqalpoq xalqlari turkiy olamning bir ildizidan unib chiqqan va qadim davrlardan boshlab bir-birlari bilan barcha sohalarda, jumladan adabiy hayotda ham hamkorlik qilib yashab kelayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu do‘stlik, qardoshlik rishtalari yozuvchi va shoirlarimiz ijodiy faoliyatida ham ko‘zga tashlanadi. Xususan, qirg‘iz xalqining buyuk yozuvchisi Chingiz Aytmatov qozoq adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lgan Muxtor Shoxonov, o‘zbek adabiyotida zabardast yozuvchilari Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov bilan hammaslak, do‘st va yaqin qardon ekanligi barchamizga ayondir. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov o‘z xotiralarini qog‘ozga tushirar ekan Qirg‘iziston xalq yozuvchi Chingiz Aytmatovni hurmat bilan tilga oladi.

Xususan, Odil Yoqubov Chingiz Aytmatovning ellik yoshi munosabati bilan bitta ocherk (afsuski bu ocherkni biz yozuvchining nashr qilingan kitoblari ichidan topa olmadik), yetmish yoshlik yubileyi oldidan “Jahon adabiyoti” jurnalida katta hajmli “Turkiy dunyo buyuklari” turkumida berilgan “Chingiz Aytmatov – ulkan adib, oddiy inson” nomli esse-maqola, tavalludining yetmish besh yilligi bilan “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2004- yil 24- sonida “Adib va chin inson” sarlavhasi ostida maqolasini e‘lon qildi. Shuningdek, Odil Yoqubovning turmush o‘rtog‘i Maryam Yoqubova va farzandi Iskandar Yoqubovlar tomonidan nashr qilingan “Ulug‘ va sadoqatli muhabbat” kitobida ham Maryam Yoqubovning “Do‘stning e‘tirofi” nomli xotirasi o‘rin olgan.

Yozuvchi Odil Yoqubovning Chingiz Aytmatov bilan tanishuvini “Chingiz Aytmatov – ulkan adib, oddiy inson” nomli essesda shunday xotirlaydi. “Oltmishinchi yillarning o‘rtalari. Bir kuni uyimga Pirmqul Qodirov telefon qildi.

– Toshkentga Chingiz kelgan – dedi Pirmqul. – u “Toshkent” mehmonxonasiga tushgan. Men uni soat ikkiga uyga taklif qildim. Sen mashinangda uni olib kelsang. Taniysan-ku uni?

– Ha, uzoqdan ko‘rganman – dedim men.

Soat ikkiga yetib bordim. U ham roppa-rosa soat ikkida mehmonxonadan chiqib keldi. Baland bo‘yli, xushqand, xushsurat (xudo beraman desa har jihatdan berar ekan)” [2.3.]. Ushbu xotiradan anglashiladiki, ikki yozuvchining tanishuvi va do‘stligi shu uchrashuvdan boshlangan. Adibning turmush o‘rtog‘i Maryam Yoqubova ham yuqorida tilga olingan xotira kitobida ikki buyuk ijodkorning tanishuvini: “Chingiz Aytmatov Toshkentga qandaydir bir tadbirda ishtirok etish uchun kelganida Pirmqul aka uni uyiga taklif qilgan. Odil aka Pirmqul akaning uyida Chingiz Aytmatov bilan tanishib, u bilan bir umrga do‘st bo‘lib qolganlar. Samimiy va do‘stona vaziyatda o‘tgan ilk uchrashuvni Odil aka juda ko‘p gapirib yurganlar”[1.84.] – deb eslaydi. Xotiralardan anglashiladiki, Odil Yoqubov va Chingiz Aytmatovning do‘stlik rishtalari bog‘lanishida yozuvchi Pirmqul Qodirov asosiy rol o‘ynagan. Pirmqul Qodirov xonadonida yozilgan dasturxon atrofida uch ijodkor dildan suhbatlashgan (bu uchrashuvda Odil Yoqubov, Chingiz Aytmatov va Pirmqul Qodirovdan boshqa yozuvchilarning ishtiroki haqiga ma‘lumot berilmaydi).

Odil Yoqubov har ikki maqolasida ham adib bilan qurgan samimiy suhbatlarini, birgalikda qatnashgan anjuman va formlardagi nutqini, bir-biriga yozgan xatlardagi dil izhorlarini bot-bot eslaydi. Maryam Yoqubova esa “Chingiz Aytmatov bizning xonadonda ham bir necha marta mehmon bo‘lgan. Birinchi marta 1974- yili Qirg‘izistonning o‘zi tug‘ilib o‘sgan Talas vodiysiga Toshkent orqali borayotganida uyimizga kelgan... keyinchalik 1978- yilda turmush o‘rtog‘i Maryamxon bilan mehmonga kelishganda yong‘og‘imiz endigina gulini to‘kayotgan mahal edi. ... 1988 - yildagi tashrifida Chingiz Aytmatov qo‘liga qadah ko‘tarib, quyidagi so‘zlarni aytgani hozirgacha qulog‘im ostida jaranglab turibdi”[1.84-84.], – deb go‘zal xotiralarini kitobxonga yetkazadi. Odil Yoqubov va Maryam Yoqubovalarning yozganlaridan anglashiladiki ikki oila – Aytmatov va Yoqubovlar bir-birlari bilan juda yaqin munosabatda bo‘lganlar.

Odil Yoqubov maqolalarida Chingiz Aytmatov bilan suhbatlari yordamida uning insoniy fazilatlariga to‘xtalishni joiz deb biladi. “Chingiz Aytmatov ijodi to‘g‘risida yozilgan maqolalar to‘planadigan bo‘lsa, ehtimol 20-30 jildga ham sig‘mas. Shu bois men uning ijodi haqida emas, insoniy fazilatlarini to‘g‘risida, ulug‘ adibning

ma’naviy qiyofasi va ichki dunyosi haqida tasavvur beruvchi voqealarni hikoya qilgim keladi”[2.4.] – deydi. Odil Yoqubov va Maryam Yoqubova xotiralarini o‘qigan kitobxon ko‘z o‘ngida Chingiz Aytmatov bir qancha insoniy fazilatlari bilan namoyon bo‘ladi:

- Kibrdan, kalandimog‘likdan yiroq, maqtozni yoqtirmaydigan inson;
- Juda katta zakovat sohibi, shirin suhbatdosh, yangi-yangi hangomalar bilan davrani va suhbatdoshni jalb qila oladigan iste’dod sohibi;
- Aytilgan joyga yoki uchrashuvlarga hamisha o‘z vaqtida boradigan (kech qolish odatini yomon ko‘radigan), yaqin aqrabolarini tez-tez yo‘qlaydigan va eng asosiyni o‘z tug‘ilib o‘sgan yurtini sevib ardoqlaydigan vatanparvar.

Chingiz Aytmatovga xos bu insoniy fazilatlarni mazkur maqolada batafsil yoritishning imkoni bo‘lmas. Ammo ba’zilariga to‘xtalishni joiz deb bildik.

Adib aytilgan joyga yoki uchrashuvlarga hamisha o‘z vaqtida kechga qolmasdan borgan. Yuqorida berilgan parchada O.Yoqubov Chingiz Aytmatovni mehmonxonadan roppa-rosa soat ikkida olib P.Qodirovning uyiga olib borganini aytgan edi. Yana bir voqeani O.Yoqubov shunday eslaydi. Bir kuni O.Yoqubov Ch.Aytmatovni uyiga taklif qiladi. Ammo adib bora olmasligini, chunki o‘zi tug‘ilib o‘sgan Shakarga borishi kerakligini aytadi. Lekin ikki do‘st bir soatga Qozog‘iston chegarasidagi choyxonada uchrashishga kelishib oladi. O.Yoqubov o‘zining to‘qqiz yarimga yetib borganini, Aytmatov esa roppa-rosa o‘nda yetib kelib, soat o‘n birda ketish uchun ruxsat so‘raganini va “U doim soatga qarab ish qiladi” – deya xotirlaydi. Odil Yoqubov shu o‘rinda adibni har bir narsaga, xususan ijodda ham mas’uliyat bilan yondashadigan ijodkorligiga urg‘u beradi.

Adibning yangi-yangi hangomalar bilan davrani va suhbatdoshni jalb qila oladigan iste’dod sohibi ekanligini, qiziqarli va tesha tegmagan hangomalarini Odil Yoqubovdan tashqari Maryam Yoqubova hamda Yoqubjon Xo‘janberdiyev maqolasida aytib, kitobxon ko‘z oldida Chingiz Aytmatovni qayta gavdalantiradi.

O.Yoqubov maqolalarining bir necha o‘rinlarida: “Ovulga kiraverishda katta olomon yig‘ilgan. Uning orasida boshlariga oppoq qordek udana burkab olgan bir guruh kekxa ayollar turardi. Biz mashinalardan tushishimiz bilan bu kampirlar ko‘zlarida yosh, yugurib kelib Chingizni o‘rab olishdi-yu, uni quchoqlab yig‘lab yuborishdi. Shunda men Chingiz nima qilarkan deb, zimdan kuzatib turdim. Chingiz ham ko‘ziga yosh olib, kampirlar bilan quchoqlashib ko‘rishdi, ularning yelkalarini silab iliq so‘zlar aytdi.

Keyin bilsam, Chingiz urush yillari shu ovulda qishloq kengashi kotibi bo‘lib ishlagan va frontdan kelgan “qora xat”larni beva ayollarga topshirmasdan, qishloq kengashining po‘lat sandig‘iga solib qo‘yavergan”ligini aytadi. Aytmatov udana

burkab olgan kampirlarning ko‘pchiligini tanigan, ular bilan bir-bir suhbatlashgan, o‘tmish, ota-onasi haqida uzundan-uzun suhbatlar qurgan edi. Aynan “Momo yer” qissasining qahramoni yo‘ngki qahramonlari mana shu udanali kampirlar edi.

U o‘zining dunyoni lol qoldirgan “Asrga teng kun”, “Kunda”, “Kassandra tamg‘asi” romanlarini ellikdan oshganidan keyin yozdi. “Kunda” va ayniqsa, “Asrga teng kun” uni butun jahon adabiyotining g‘aroyib yozuvchisi Gabriel Markesga teng miqiyosga olib chiqdi. Chingiz yaratgan Manqurt obrazi, to‘g‘rirog‘i bu so‘z kitobxonlarni larzaga solib, sotqinlik timsoli sifatida dunyoning barcha tillariga kirib” [2.6.] ketganligi buning yaqqol namunasidir. Haqiqatan ham XX asr jahon xalqlar adabiyotini dunyoda ikkita yozuvchi qoq ikkiga bo‘lib tebratgan edi. Amerika va avstraliya xalqlarini Gabriel Markes bo‘lsa, Osiyo va Yevropa xalqlarini Chingiz Aytmatov o‘z asarlari bilan zabt etgan edi. Buni yozuvchi o‘zining yetmish besh yillik yoshi arafasida xotirlab uning asarlari o‘z yurtidan ko‘ra ko‘prov Yevropada mashhur bo‘layotganligini aytadi. Shu o‘rinda Chingiz Aytmatov insonlarning kitobga bo‘lgan munosabatini, keyingi avlod kitob o‘qishdan, ularga baho berishdan uzoqlashib ketayotganligini afsuslar bilan aytadi. Osiyo xalqlarini mustabid tuzum va keyingi globallashuv davridagi turli voqea-hodisalar kitobdan ancha uzoqlashtirganini, ba’zi odamlar kitobga emas ishga – mehnatga, yoki boshqa zamonaviy texnikalarga, Rossiya kitobxonlarini esa ko‘prov badiiy asarlar emas intem mavzular qiziqtirayotganligini aytib yana bir davr fojiasidan ogohlantiradi. Keyingi avlodning kitobdan uzoqlashishi bu o‘zining tarixidan, urf-odatlaridan, an‘analaridan, qadriyatlaridan, o‘zligidan uzoqlashish ekanligini yozuvchi anglaydi. O‘zining badiiy adabiyotga olib kirgan manqurt, manqurtlik davr va asr uchun yana oldimizda yechimini topishi kerak bo‘lgan fojia ekanini aytishga urinadi. “Asrga teng kun” romanidagi Nayman onaning o‘g‘li Jo‘lamon dushman qo‘liga tushib manqurtlashgan bo‘lsa, Kazangapning o‘g‘li Sobitjon davr yetishtirgan XX asrdagi manqurt kimsalar. Sobitjon kabi yigitlarni Sho‘ro davri yetishtirdi. Ular ona Vatan, ota-ona qadrini bilmaydi, xalqning urf-odatlarini esa allaqachon unutgan. Hatto ota vasiyatini ham bajarish kerakligini ortiqsa dahmaza deb biladigan kimsalar. Yozuchi Chingiz Aytmatov Sobitjondan keyingi avlod manqurtlarini nazarda tutadi suhbatlarida. Bular dushman qo‘liga tushmaydi, davrning yolg‘onlariga uchmaydi. Bular o‘zlari bilmagan va anglamagan holda manqurtlik yoqasiga kelib qoladilar. Buning asosiy sababi ular kitob mutolaa qilmaydilar. O‘qib, o‘rganmaydilar.

XX asrning oxirgi choragida taqdir taqozosi bilan ikki do‘st Odil Yoqubov ham, Chingiz Aytmatov ham sobiq ittifoqning deputati bo‘lib saylanadi. Odil Yoqubov deputatlik faoliyatidagi Chingiz Aytmatovning mard va keskir nutqini shunday xotirlaydi: “...O‘sha yillar xalqimizning boshiga og‘ir kunlar tushgan,

bo‘htonlar yog‘ilgan paytlar edi. (Odil Yoqubov XX asrning 80- yillaridagi “paxta ishi”... larni nazarda tutmoqda) Va biz hammamiz bu mudhish, yovuz tuhmatlardan iztirob chekib yurgandik. Bir kun bir do‘stimiz “Pravda” gazetasini ko‘tarib kelib qoldi, bundoq o‘qib ko‘rsam Chingiz bu gazetadagi maqolasida xalqimizni qattiq himoya qilibdi, o‘zbeklarni Markaziy Osiyoning yuksak madaniyatli, buyuk xalqi ekanligini aytib, Moskva matbuoti va televideniyaqidagi chiqishlarni rad etibdi.

Men uncha ham ko‘ngli bo‘sh odam emasman. Bizni Chingiz bilan yaqinlashtirgan sabablardan biri shuki, ikkimizning ham otamiz mash‘um 37-yillar qatag‘onining qurboni bo‘lishgan va bolalikda ko‘p musibatlarni ko‘raverib diydami qotib ketgan. Lekin men o‘sha maqolani o‘qib, beixtiyor ko‘zimga yosh oldim”.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Odil Yoqubov Chingiz Aytmatovni yetmish yillik yubileylari butun jahon mamlakatlarida, xususan YuNESKO tomonidan Parijda katta tantanalar bilan o‘tkazilgan, katta lavozimlarda ishlagan, asarlari bilan qit‘alarni zabt etgan mashhur yozuvchining kibrdan yiroq, oddiy insoniy fazilatlarini yoritadi. Inson ichki dunyosini anglash uchun uni to‘la tushunmog‘i, bilmog‘i kerak. Ko‘rinadiki ikki yozuvchi ham zamondosh, ham qalbdosh va sirdosh bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoqubova M, Yoqubov I. Ulug‘ va sadoqatli muhabbat. Toshkent. “SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2012, 84-85 b.
2. Yoqubov O. Chingiz Aytmatov – ulkan adib, oddiy inson// Jahon adabiyoti. 1988 y, dekabr soni 4-b.
3. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИЩДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
4. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an‘anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
5. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p. https://www.researchgate.net/publication/375649608_Issues_of_Distribution_of_Bear_Image_in_Uzbek_Novels.
6. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИЩДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
7. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma‘rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
8. RAJABOVA, Hulkar. "Qissada ekzistensial qahramon va uning jonzodlar bilan yashash motivi (Shuhrat Matkarimning “Maqar” qissasi misolida)." «ACTA NUUZ» 1.1.2. 1 (2025): 318-320.

"TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR"

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

9. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.
10. Abdujamilovna, Kalandarova Dilafruz. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
11. Kadirova M.N., Innovative methods for improving the methodology of teaching folklore in literature lessons. AmericanAcademicpublishers, volume05, issue05, 2025. [INNOVATIVE METHODS FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING FOLKLORE IN LITERATURE LESSONS | International journal of artificial intelligence](#)